

DAVLAT XARIDLARIDA MOLIYAVIY MUNOSABARLARNI TASHKIL ETISH VA UNING MEKANIZMLARINI TAHLIL QILISH

G'aniyeva Yulduz Ravshan qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat va korporativ xaridlar tizimining zamonaviy holati, huquqiy asoslari, elektron xaridlar platformasining joriy etilishi, shuningdek, davlat xaridlari orqali budjet mablag'laridan samarali foydalanish mexanizmlari yoritilgan. Tahlillar asosida amaldagi tizimda mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, korporativ xaridlar, elektron platforma, byudjet mablag'lari, tender, kichik biznes, O'zRTXB.

ORGANIZATION OF FINANCIAL RELATIONS IN PUBLIC PROCUREMENT AND ANALYSIS OF ITS MECHANISMS

G'aniyeva Yulduz Ravshan qizi

Student of Tashkent State University of Economics

Abstract: This article discusses the current state of the public and corporate procurement system in the Republic of Uzbekistan, its legal foundations, the introduction of electronic procurement platforms, and mechanisms for the efficient use of budget funds through public procurement. Based on the analysis, existing problems in the current system and proposals for their resolution have been developed.

Keywords: public procurement, corporate procurement, electronic platform, budget funds, tender, small business, UzRCE (Uzbek Republican Commodity Exchange).

Kirish.

Hozirgi kunda davlat va korporativ xaridlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin egallab, davlat muassasalari hamda budjet va maqsadli jamg'armalar hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarni zarur mahsulot hamda xizmatlar bilan maqbul narxlarda va o'z vaqtida ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Davlat xaridlarining iqtisodiyotdagi o'рни va ta'siri haqida so'z yuritganda, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir:

“Yaqin kelajakda barcha davlat xaridlarini amalga oshirish va davlat mulkini sotish uchun Internet tarmog'ida yagona maydon tashkil etish lozim. Bu byudjet

xarajatlarini qisqartirish, davlat mulkini samarali boshqarish va katta moliyaviy mablagʻlarni iqtisod qilish imkonini beradi,”¹– degan fikrlari bugungi islohotlar yoʻnalishini aniq koʻrsatib bermoqda.

Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish uchun bir qator ustuvor yoʻnalishlarni hayotga tatbiq etish lozim: mavjud qonunchilik bazasini takomillashtirish va yangi meʼyoriy hujjatlarni ishlab chiqish, budget tashkilotlarida xarid jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish uchun zamonaviy uslubiy asoslarni yaratish, hamda ushbu jarayonlar uchun masʼul boʻlgan mutaxassislarining malakasini oshirish shular jumlasidandir. Ayniqsa, davlat xaridlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida "Davlat xaridlari toʻgʻrisida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish zarurati ham ilmiy doiralar, ham biznes vakillari tomonidan faol qoʻllab-quvvatlanmoqda.²

Maʼlumki, davlat xaridlari turli shakllarda amalga oshiriladi: tender savdolari, tanlov asosida xarid, elektron auksionlar, elektron kataloglar orqali savdo, toʻgʻridan-toʻgʻri shartnomalar, shuningdek, kapital qurilish boʻyicha tanlov savdolari mavjud. Shu bois, yaratilayotgan qonuniy asoslar har bir turdagi xarid qachon va qanday hollarda qoʻllanilishini aniq belgilab berishi, shuningdek, har bir bosqichning tartib-taomillarini toʻliq bayon etib, elektron xarid tizimlarini tartibli va shaffof tashkil etishga, ularni bosqichma-bosqich rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga xizmat qilishi lozim. Bu esa, mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini yanada yaqqol namoyon etadi.

Tahlil va natijalar.

Davlat budgetini bajarishga qaratilgan gʻaznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash budget maglagʻlaridan foydalanish samaradorligini ancha oshiradi. Shu oʻrinda Iqtisodiyot va moliya Vazirligi huzurida tashkil etilgan Gʻaznachilik tuzilmasining malakali kadrlar bilan taʼminlash, moddiy-texnik bazasini barcha pogʻonalarda mustahkamlash, uni xalq taʼlimi va sogʻliqni saqlash sohasida budget tashkilotlari uchun davlat xaridlarini moliyalashtirish mexanizmini yanada rivojlantirish boʻyicha keng koʻlamdagi ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Davlat xaridini samarali boshqarish orqali budget mablagʻlarini iqtisod qilish uchun mahsulotlarni vositachilarsiz aynan ishlab chiqaruvchilarning oʻzidan, chetdan keltiriladigan tovarlar esa bevosita importyordan sotib olinishi narxlar oshishini oldini oladi.

Davlat xaridlari jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: rejalashtirish, xarid usulini tanlash, eʼlon berish, takliflarni qabul qilish va baholash, gʻolibni

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — Toshkent: «Oʻzbekiston» NMIU, 2019. – 51 b.

² Oʻzbekiston Respublikasining 22-aprel 2021-yildagi 684-sonli qarori

aniqlash, shartnoma tuzish va uning bajarilishini nazorat qilish. Har bir bosqichda shaffoflikni ta'minlash muhim bo'lib, bu korrupsiyaning oldini olish, raqobat muhitini shakllantirish hamda budjet mablag'larini tejash imkonini beradi.

Davlat xaridlarining samaradorligi bir necha omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimlaridan biri elektron davlat xaridlari tizimining joriy etilishidir. Elektron platformalar orqali xaridlarni amalga oshirish shaffoflikni oshirish, vaqt va mablag'ni tejash hamda korrupsion xavflarni kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu tizim tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoit yaratib, davlat xaridlarida ularning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

Budjetdan mablag' oluvchilar 2011-yilning 1 aprelidan Hukumat komissiyasining 2011-yil 15-fevraldagi 1-sonli yig'ilish bayonnomasining³ 2-ilovasiga ko'ra kichik biznes subyektlari orqali amalga oshiriladigan tovar(ish, xizmat)lar bo'yicha davlat xaridlarini ularga o'rnatilgan eng kam ulushlar (kvota) miqdorlaridan kam bo'lmagan tarzda kichik biznes subyektlari orqali amalga oshirishlari kerak.

Budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar to'liq (100 foiz miqdorda) kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha maxsus axborot portaliga savdo o'tkazish yoki elektron savdo o'tkazish to'g'risida e'lonlarni joylashtirishda, e'lon shartida faqatgina kichik biznes subyekti qatnashishi mumkinligini ko'rsatib o'tishlari lozim. Bunda, portalning axborot bazasida tegishli ma'lumotlar bo'lmagan hollarda, tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchilar budjetdan mablag' oluvchilarga ushbu e'lonlar bo'yicha savdoda qatnashish uchun tegishli statistika yoki soliq organlari tomonidan tasdiqlangan tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchining kichik biznes subyektiga kirishi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim qilishlari lozim. O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi va uning hududiy bo'linmalari to'liq (100 foiz miqdorda) kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha maxsus axborot portaliga joylashtirilgan talabnomalar bo'yicha elektron savdolarida faqat kichik biznes subyektlari ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachiligi va O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining ma'lumotlar bazasini elektron bog'lash yo'li orqali budjetdan mablag' oluvchilar birja tomonidan markazlashgan tartibda avtomatik tarzda buyurtmachi sifatida ro'yxatdan (akkreditatsiyadan) o'tkaziladi.

Budjetdan mablag' oluvchilar O'zbekiston Respublika tovar xom-ashyo birjasida tashkil etilgan elektron savdolarida agentlar (brokerlar) orqali yoki mustaqil ravishda qatnashadi.

³elektron ko'rinishda G'aznachilikning saytida joylashtirilgan (www.treasury.uz)

Budjetdan mablag‘ oluvchilar va agentlar orasidagi munosabatlar ular o‘rtasida tuzilgan topshiriq shartnomasiga ko‘ra belgilanadi. Topshiriq shartnomasida quyidagi shartlar bo‘lishi lozim:


1) Agentlarga xizmat uchun to‘lovlar (Iqtisodiyot va moliya vazirligi va hamda O‘zbekiston Respublika tovar xom-ashyo birjasi tomonidan belgilangan miqdorda);

2) Birjaning vositachilik xizmati (elektron savdolarida tuzilgan bitim summasining 0,05 foizi miqdorida);

3) Savdo o‘tkazish haqidagi e‘lonlar maxsus axborot portalga joylashtirganligi uchun to‘lovlar (e‘lonlar agentlar orqali maxsus axborot portaliga joylashtirilgan hollarda – O‘zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilangan miqdorda).

Bundan tashqari, topshiriq shartnomasida shartnoma maqsadi, buyurtmachi va agentning majburiyatlari, tomonlarning javobgarligi, hisob-kitob qilish tartibi, shartnomaning amal qilish muddati va boshqa bir qanchashartlar ko‘rsatib o‘tiladi. Budjetdan mablag‘ oluvchi va agent o‘rtasida tuzilgan topshiriq shartnomalari asosiy shartnoma vazifasini o‘taydi va ular Iqtisodiyot va moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalarida ro‘yxatga olinmaydi, ya’ni faqatgina ularning hisobi yuritiladi. Topshiriq shartnomasida narx belgilanmaydi. Budjetdan mablag‘ oluvchilar agentlar bilan topshiriq shartnomasini tuzayotganda ularga rahbar va bosh hisobchining imzo namunalari kartochkalarini keyinchalik birjaning hududiy bo‘linmalariga yetkazib berish uchun taqdim qiladilar.

Quyidagi rasmda davlat xaridlari bo‘yicha tuzilgan bitimlarning hajmi keltirilgan bo‘lib, unda xaridlar hajmini keskin ortganini ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm. Davlat xaridlari bo'yicha tuzilgan bitimlarning hajmi (2020-2024)⁴

Tanlov va boshqa tanlov savdosining hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish, tanlov savdolari o'tkazish usuli va uslublari qo'llanishining maqsadga muvofiqligi va asoslanganligini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi (Davarxitektqurilish).

Tanlov savdolarini ochishda, ekspertiza xulosasi tanlov komissiyasining e'tiboriga yetkaziladi. Ekspertiza tomonidan ijobiy xulosa berilganidan so'ng, ochiq tanlov savdolari o'tkazilayotganda, ommaviy axborot vositalarida e'lon chop etiladi, yopiq tanlov savdolari o'tkazilayotganda potentsial ishtirokchilarga taklifnomalar yuboriladi.

Tanlov savdolari jarayonida ishtirok etishga taklifnomalarni jo'natish bo'yicha e'lonlarni chop ettirish, pudratchilarni muddatida tayyorgarlik ko'rishlari va o'z talabnomalarini taqdim etishlari uchun yetarli bo'lgan muddatda, lekin e'lon chop etilgan kundan e'tiboran kamida 30 kalendar kun va taklifnoma jo'natilgan kundan e'tiboran 35 kundan kam bo'lmagan muddatlarda buyurtmachi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Ekspertiza tomonidan berilgan ijobiy xulosa matbuotda tender savdosi to'g'risidagi e'lonni chop ettirishga asos bo'ladi.

Tanlov savdosi hujjatlarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish va tanlov savdolarini tashkillashtirish va o'tkazish buyurtmachi (investor) mablag'laridan amalga oshiriladi.

⁴ Muallif tomonidan tovar xom-ashyo birjasai ma'lumotlari asosida tuzildi.


1-jadval

“O‘zbekiston Respublikasi TXB” AJning 2021-2023-yil faoliyat yakunlari to‘g‘risida ma’lumot⁵

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Bitimlar hajmi, jami	mlrd. so‘m	87 307,7	137 881,9	146 839,7
Birja savdolari, jami	mlrd. so‘m	74 479,4	100 315,4	103 887,7
shu jumladan: yuqori likvidlik mahsulotlar (PQ-4484)	mlrd. so‘m	67 212,1	89 786,9	80 551,3
birja savdolarining O‘zRTXB bitimlarining umumiy hajmidagi ulushi	%	85,3	72,8	70,7
yuqori likvidlik mahsulotlarning O‘zRTXB bitimlarining umumiy hajmidagi ulushi	%	77,0	65,1	54,9
birja savdolarida ishtirok etgan ishlab chiqaruvchilarning qo‘shimcha daromadlari	mlrd. so‘m	7 577,8	10 687,3	3 750,0
KXT subyektlari tomonidan sotib olingan mahsulotlarning hajmi	mlrd. so‘m	20 088,8	24 382,2	21 968,1
sotilgan mahsulotlarning umumiy hajmida KXT subyektlarini xarid qilish ulushi	%	23,0	17,7	15,0
KXT subyektlari tomonidan sotib olingan mahsulotlarning hajmi	mlrd. so‘m	12 920,4	5 334,3	5 319,0
sotilgan mahsulotlarning umumiy hajmida KXT subyektlarini sotish ulushi	%	14,8	3,9	3,6
Ko‘rgazma-yarmarka savdolari bitimlarining hajmi	mlrd. so‘m	1 496,7	501,7	289,1
Eksport	mlrd. so‘m	770,0	631,2	25,9
Davlat xaridlari bo‘yicha tuzilgan bitimlarning hajmi	mlrd. so‘m	11 027,4	36 748,4	42 254,1
budjet mablag‘larini tejalishi	mlrd. so‘m	1 724,6	5 837,4	7 878,8
boshlang‘ich bahoga nisbatan budjet mablag‘larini tejalishi	%	13,5	13,7	15,7

⁵ Muallif tomonidan tovar xom-ashyo birjasai ma’lumotlari asosida tuzildi. www.uzex.uz/uz-latn/pages/statistics

“O‘zbekiston Respublikasi TXB” AJning 2021-2023 yil faoliyat yakunlarini umumlashgan holda quyidagicha aks ettirish mumkin .Yani jadvalga ko‘ra "O‘zbekiston Respublikasi Tovar-xomashyo birjasi" AJ faoliyatiga ko‘ra, 2021-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda umumiy bitimlar hajmi 87,307.7 milliard so‘mdan 146,839.7 milliard so‘mgacha o‘sgan bo‘lsa-da, birja doirasidagi bitimlarning ulushi 85.3% dan 70.9% gacha pasaygan. Birja savdolari hajmi esa ushbu davrda 74,479.4 milliard so‘mdan 103,887.7 milliard so‘mgacha, yuqori likvidlik mahsulotlar bo‘yicha bitimlar hajmi 67,212.1 milliard so‘mdan 80,551.3 milliard so‘mgacha oshgan. Shu bilan birga, ko‘rgazma-yarmarka savdolari hajmi 1,496.7 milliard so‘mdan 289.1 milliard so‘mgacha kamaygan. Eksport, davlat xaridlari va byudjet mablag‘larini tejash bo‘yicha ko‘rsatkichlarda ham o‘zgarishlar kuzatilgan.



**2-rasm. “O‘zbekiston Respublikasi TXB”
AJning 2021-2023yil faoliyat yakunlari(mlrd/so‘m)⁶**

Rasmdan ko‘rinadiki, xaridlar asosan birja savdolari orqali bajarilgan, 2022-yilga kelib ko‘rgazma-yarmarka savdolari bitimlarining hajmi yildan yilga pasayib borgan eng past ko‘rsatkichni ko‘rsatib. Lekin Davlat xaridlari bo‘yicha tuzilgan bitimlar hajmi 2022-yilda sezilarli oshib 2023-yilda o‘shir sur‘ati biroz sekinlagan. Bu paytda esa korporativ xaridlar bo‘yicha tuzilgan bitimlar hajmida deyarli o‘zgarish bo‘lmagan.

Davlat xaridlari sohasidagi qonunchilikka qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilgani davlat budjeti mablag‘lari va boshqa markazlashtirilgan manbalardan maqsadli va oqilona foydalanishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

⁶Muallif tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi TXB” AJning ma’lumotlari asosida tuzildi

Xususan, davlat tovarlari (ishlar va xizmatlar) xaridi uchun ajratilgan mablag‘larning samarali ishlatilishini ta’minlashda nazorat tizimi alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat xaridlari jarayonida tender (tanlov, konkurs) savdolarining ochiq va shaffof tarzda o‘tkazilishi katta ahamiyatga ega. Tender savdolarining qonuniy va adolatli tashkil etilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston

Iqtisodiyot va moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi qoshida maxsus nazorat bo‘limi faoliyat yuritadi. Agar savdolarda ishtirokchilar o‘zaro kelishib olish yoki korrupsiya yo‘li bilan g‘olibni aniqlashga urinish holatlari aniqlansa, qonunchilikka muvofiq ravishda ushbu korxona va tender ishtirokchilariga nisbatan qat’iy choralar qo‘llanadi. Bundan tashqari, ushbu tender natijalari bekor qilinib, u o‘z kuchini yo‘qotgan deb topiladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatiga xalaqit beruvchi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat xaridlari jarayonida kichik biznes subyektlarining faol ishtirokini ta’minlash uchun qulay shart-sharoitlar va keng imkoniyatlar yaratish muhim yo‘nalishlardan biridir.

Davlat xaridlarida kichik biznes vakillarining ishtirokini oshirish orqali xususiy sektor uchun tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa halol raqobatni kuchaytirib, davlat xaridlari bo‘yicha tenderlarda kichik biznes subyektlariga afzallik yaratmoqda. Shuningdek, tegishli vazirliklar va idoralar hamda O‘zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasi tomonidan kichik biznes vakillarini malakasini oshirish kurslarini tashkil etish, davlat xaridlarida ishtirok etuvchi tashkilotlarni bepul akkreditatsiya qilish va kichik biznes uchun qulay moliyaviy shart-sharoitlar yaratish ham xususiy sektor uchun yaratilgan imtiyozlardir.

Davlat xaridlari sohasidagi qonunchilikka rioya etilishiga doimiy nazorat o‘rnatilishi, davlat byudjeti mablag‘lari va markazlashtirilgan manbalardan maqsadli foydalanishning muhim omili bo‘ladi. Davlat xaridlarini amalga oshirish samaradorligi doimiy ravishda tahlil qilib boriladi va ularni takomillashtirish choralari ko‘rilmoqda. Bularning barchasi kichik biznes subyektlarini faol jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Natijada, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2023 y.,
2. O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni
3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
4. Burxonov U. Davlat xaridi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “infoCOM.uz”, 2010.
5. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi rasmiy sayti)
6. O‘zbekiston Respublikasi TXB” AJning ma‘lumotlari.
7. www.uzex.uz/uz-latn/pages/statistics
8. elektron ko‘rinishda G‘aznachilikning saytida joylashtirilgan (www.treasury.uz).